HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI

Tursunov Hojiakbar Hamidullo o‘g‘li
Farg‘ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
maxsus fan o‘qituvchisi

Annonatsiya: *Kompyuter texnologiyalari davrida ko‘zi ojiz o‘quvchilarini shaxsiy kompyuterda foydalanish imkoniyatlari va ulardan oqilona foydalanish. JAWS, NVDA dasturlari va ularning imkoniyatlari.*

Kalit so’zlar: *JAWS, NVDA dasturlarii, internet.*

JAWS TARIXI

Ko‘zi ojizlar uchun ekran yordamchilari orasida birinchi bo‘lib JAWS ta’sis etilgan. Wikipedia ma’lumotiga ko‘ra ushbu dastur 1978-yilda yo‘l transport hodisasi tufayli ko‘z nuridan ajragan sobiq motosiklchi Ted Henter tomonidan 1989-yilda chiqarilgan. Henter ushbu loyihani amalga oshirish uchun 1985-yilda Joys tomonidan 186000 dollarlik sarmoyani qabul qiladi va Henter-Joys korparatsiyasini tashkil etadi. 1990-yilda Joys o‘z uslubini Henterga sotadi. 2000-yilning aprel oyida Henter-Joys kompaniyasi Blazie Engineering va Arkenstone Inc bilan birlashgan holda Freedom Scientific kompaniyasi hosil bo‘ladi. Dastur dastlab, MS-DOS operatsion tizimi uchun yaratilgan bo‘lib 1995-yil yanvar oyida Windows tizimi uchun 1.0 versiyasi e’lon qilingan. Shundan buyon har yili dasturning takomillashtirilgan yangi vaersiyalari ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi kunda ushbu dasturning yangi versiyasi 2019-yil aprel oyi holatiga ko‘ra “JAWS 2019.1903.47” bo‘lib turibdi.

NVDA TARIXI

NVDA inglizchadan (Non Visual Desktop Access) so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib 2006-yil Maykl Curran tomonidan ishlab chiqilgan. Maykl Curran Microsoft SAPI bilan Pythonekran diktorini nutq vositasi sifatida ishlab chiqishga kirishdi. Asosiy maqsad – turli tijoriy yo‘llar bilan taklif etiluvchi ekran diktorlari o‘rnini bosa oladigan bepul dastur yaratish bo‘lgan. 2006-yil oxiriga kelib muallif o

‘zining NVDA (Non Visual Desktop Access) loyihasini e`lon qiladi va kelasi yil 0.5 versiyasini taqdim etadi. Shundan so‘ng yildan yilga dastur barqaror o‘sishda davom etib imkoniyatlari oshirib borildi. Bugungi kunda NVDA barcha operatsion tizimlarni qo‘llab-quvvatlaydi va JAWS ning asosiy kuchli raqobatchisiga aylandi. 2019-yilning aprel oyi holatiga ko‘ra dasturning so‘ngi versiyasi – “NVDA 2019.1”

JAWS va NVDA ning asosiy farqlari

Ikki dasturiy ta`minotning ham maqsadi bir – ya’ni ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi kishilar uchun kompyuterdan foydalanishda yordamchi bo‘lish. Ularning birini ustun qo‘yish fikridan yiroqman. Shunday bo‘lsa-da, ularning bir-birini takrorlamagan ba’zi xususiyatlarini ko‘rib chiqiqshimiz mumkin.

Dasturni topish va yuklab olish boʻyicha farqlar

Dasturni yuqorida keltirilgan oʻzining rasmiy saytlaridan topish mumkin. JAWS rasmiy saytida demo versiyasini taqdim etadi. Demo versiyasida dastur kompyuterni haer gal qayta ishga tushirilganda 40 minutgacha ishlaydi va toʻliq ishlashi uchun litsenziya sotib olish kerakligini ogohlantiradi. Anglaganingizdek, JAWS pullik hisoblanadi. Lekin internet sahifalarida uning litsenziyasini bosuvchi vzlom qilingan versiyalari ham bor. Dastur hajmi yangi versiyalarida 500mb dan oshadi. NVDA dasturini esa rasmiy saytidan bepul yuklash mumkin, hajmi 20 mbdan biroz oshadi. Dasturni qulay ishlashi uchun qoʻshimcha nutq sintezatorlarini mustaqil ravishda oʻrnatiish, NVDAning asosiy xususiyatlarini kengaytirish kerak. Ushbu manzilda qoʻshimcha komponentlar oʻrin olgan.

Dasturni oʻrnatish, ishga tushirish boʻyicha farqlar

Menimcha ushbu yoʻnalishda NVDA qulay. Nega deganda, ushbu dasturni bir marta oʻrnatib, barcha komponentlarni alohida oʻrnatgandan soʻng uning portativ versiyasini yaratib olish mumkin. Portativ versiya yordamida dasturni USB kartalarga yuklab boshqa kompyuterga oʻrnatmagan holda ham foydalansa boʻladi. JAWS esa har safar undan foydalanish uchun konfiguratsiyani toʻliq oʻrnatishni talab qiladi.

Internet uchun afzalliklar

Har ikki dastur internetning barcha mashxur brauzerlar bilan munosabatga kirisha oladi. Bu yoʻnalishda JAWS imkoniyatlari biroz koʻproq, nazarimda. Chunki ushbu dastur yordamida sichqoncha kursori bilan yaxshi ishlash mumkin, birgina “F6” va “F7” tugmalari orqali sahifadagi sarlavhalar va linglarni ajratib olib tanishish mumkin.

Elektron ma’lumotlar, jadvallar bilan tanishish

Elektron ma’lumotlardagi hujjat nomlari, sarlavhalar, tasvirlar, xatchoʻplar, jadvallar, shakllar, roʻyxatlar va havolalar kabi turli xil elementlarni ovozlashtirishda NVDA ancha ilgarilab ketgan. Kursor hujjarning nechanchi qatorida, nechanchi sahifasida, qaysi yacheykasida turgani kabi kichik detallarni shu dastur yaxshiroq tanishtiradi.

Brayl displeylari bilan ishlash

Men brayl displeylaridan foydalanib koʻrmaganman. Bu borada mutaxassislarning fikriga qaraganda NVDA imkoniyatlari koʻproq ekan. JAWS turli ortiqcha dasturlarni oʻrnatib yuborgani sababli ham bu borada biroz ogʻir ishlashi sezilar ekan.

Men qay birini ishlataman?

Oʻtgan yilga qadar men JAWS ning vzlom qilingan versiyalaridan foydalanib kelar edim. JAWS dasturlari boʻyicha ushbu blogimda “Gapiruvchi kompyuterlar yoxud JAWS dasturi haqida va JAWS dasturidan keng foydalanish” maqolalarini yozgan edim. Sababi, JAWS sintezatorlar bilan yaxshi moslashadi deb hisoblar edim. Ammo “Milena” sintezatorini NVDA bilan birga eshitganimdan soʻng ushbu dasturni afzal koʻra boshladim. Hozirda NVDA ning soʻnggi versiyasini “Milena” sintezatori bilan ishlatib kelmoqdaman.

Xulosalar

Har ikki dasturning ham oʻz muxlislari va foydalanuvchilari keraklicha topiladi. Hattoki ushbu dasturlardan tashqari ham boshqa ekran diktorlari mavjud. Lekin ularning

imkoniyatlari hali raqobat darajasida emas. NVDA paydo boʻlgunga qadar JAWS eng koʻp soʻralgan dastur boʻlganligini ham unutmaslik kerak. Qaysi dasturni bu oʻz ixtiyoringizga bogʻliq. Hozirgi kunda Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabimiz Kutubxonashunoslik yo'nalishida o'quvchilar NVDA va JAWS dasturlari orqali axborot texnologiyalari o'zlashtirmoqda. Albatta bu dasturlar ruscha versiyada. Endilikda dasturchilarimiz oʻzbekcha versiyalari yaratishga xarakat qilinishi ertangi imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun axborot texnologiyalarini kompyuter orqali oʻrganish qulayligi oshishidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. https://baxtiyor.uz/jaws-dasturidan-keng-foydalanish/
2. https://lex.uz/docs/-5032128
3. https://nsportal.ru/npo-spo/informatika-i-vychislitelnaya ekhnika/ library/ 2018/ 07/26/obuchenie-lits-s-ogranichennymi
4.https://nsportal.ru/download/#https://nsportal.ru/sites/default/files/2018/07/26/ dokla d_obuchenie_ovz_na_urokah_informatiki_2017_dlya_interneta.doc
5.https://dislife.ru/articles/view/19625